

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA RESURLARNI SAMARALI  
BOSHQARISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH.**

**(Surxondaryo viloyati misolida)**

**Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna**

Doktorant Termiz davlat Universiteti

[mamatkulovaxurshida078@gmail.com](mailto:mamatkulovaxurshida078@gmail.com)

**Annotatsiya**

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini rivojlantirish har bir mamlakat uchun ustuvor vazifadir. Shu bilan bir vaqtda iqtisodiyotning bosh muommosi hisoblangan resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning asrab avaylash ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining atrof-muhit va ekologiyaga zararini kamaytirish bu sohaning uzoq vaqt davom etishishini va raqobatbardoshligini ta'minlashi haqida yozilgan.

**Tayanch so'zlar:** Kichik biznes, tadbirkorlik, yashil texnologiya, energiyani tejash, "jigarrang" iqtisodiyot, "yashil" ish o'rinlari.

Dunyo tajribasiga ko'ra, ekologik zararni kamaytirish orqali kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirgan bir qancha muvaffaqiyatli tadbirkorlik sub'yektlari mavjud. Ekologik barqarorlikni ta'minlash nafaqat atrof-muhitga zararni kamaytirishga, balki biznesning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashga ham yordam beradi. Bunday yondashuvlar ko'pincha innovatsion, resurslarni tejashga asoslangan va ijtimoiy mas'uliyatni o'zida aks ettiruvchi yondashuvlardir.

Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janub qismida joylashgan. Viloyatda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun resurslarni samarali boshqarish imkoniyatlarining bir qator strategiyalarni o'z ichiga oladi. Viloyatning iqlim sharoitlari, resurslari va iqtisodiy o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi yo'nalishlar samarali bo'lishi mumkin.

Surxondaryo viloyatida quyosh energiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda yuqori. “Yashil” energiya manbalaridan foydalanish nafaqat ekologik ta’sirni kamaytirish, balki energiya xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishga yordam beradi. Kichik biznes sub’yektlari quyosh va shamol turbinalarini orqali o‘z energiya ehtiyojlarini ta’minlashlari va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishlari mumkin. Bu esa biznesning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu borada davlatning kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab quvvatlovchi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari ham mavjud. Masalan, 2024-yil 9-iyulda Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilingan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining vazifasi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunning 20-moddasiga binoan, Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi milliy, tarmoq va hududiy dasturlar hamda loyihalar O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi<sup>1</sup>. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 19-aprelda “Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va global haroratning o‘rtacha yillik ko‘tarilishini 1,5°C dan ortiq bo‘lmasligini ta’minlash” haqidagi Parij bitimiga imzo chekgani va bitim ishtirokchilaridan biriga aylangani, kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlarining “jigarrang” iqtisodiyotdan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish majburiyat sifatida qaralishini ko‘rsatadi. Dunyo tajribasiga nazar tashlanganda, serquyosh mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha bir qator ilg‘or tashabbuslarni amalga oshirayotgani ko‘rilmoqda. Ushbu davlatlar quyosh energiyasidan samarali foydalanishga qaratilgan yirik loyihalar va innovatsion yechimlar ishlab chiqmoqda. Jumladan, Marokashdagi “Noor Ourzazate” loyihasi orqali Ourzazate shahrida dunyodagi eng yirik quyosh issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi komplekslardan biridir. Bu loyiha, quyosh energiyasining issiqlik tizimlari asosida ishlaydi. U mamlakatning turli hududlarida joylashgan bir nechta quyosh stansiyalaridan iborat. Bu 333 megavatt quvvat ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan loyiha bo‘lib, to‘liq hajmda 400 Mvt ishlab chiqarishi mumkin. Bu kichik energiya markazlari mamlakatning turli hududlarida tarqalgan. Ular orasida 184 Mvt quvvatga ega bo‘lgan megaloyiha uchun eng ko‘p energiya ishlab chiqaradigan zavod

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.08.2024 yildagi O‘RQ-940-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7052085>

bo'lgan "Ain Bni Mathar" alohida ajralib turadi<sup>2</sup>. Yana shunday loyihalardan biri, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shaxrida joylashgan dunyodagi eng yirik quyosh energiyasi parklaridan biridir. Ushbu loyiha 2012-yildan boshlanib, 5 bosqichdan o'tib hozirgi kunda oltinchi bosqichda quyidagi natijalarga erishgan. Olti-bosqichning umumiy quvvati 1800 MW bo'lib, fotovoltaik quyosh panellari asosida Mustaqil Energiya Loyihasi (IPP) modeli asosida amalga oshiriladi. Olti-bosqich yillik 2,36 million tonna karbon chiqindilarini kamaytiradi va Dubaydagi 540,000 ta uy-joyni toza energiya bilan ta'minlaydi. VI-bosqich orqali DEWA, kilovatt-soat (kWh) uchun eng past Levelised Cost of Energy (LCOE) narxini 1,6215 dollar sentda qo'lga kiritdi. 6-bosqich 2024 yildan 2026 yilgacha bosqichma-bosqich ishga tushiriladi<sup>3</sup>.

Bu kabi dunyo tajribalarini ko'plab misollar keltirish mumkin. Surxondaryo viloyatida ham quyosh energiyasini elektr energiyaga aylantirish yoki quyosh energiyasini markazlashtirib, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan texnologiyalardan foydalanish orqali viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining mustaqil energiya manbalariga ega bo'lishlariga va atrof –muhitga kam chiqindi chiqaradigan tadbirkorlar raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi. Zero, elektr energiyasi talab qilmaydigan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mavjud emas. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Surxondaryo viloyatida quyosh energiyasidan samarali foydalangan holda, kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining xarajatlarini tejashga va bu orqali ularning raqobat muhitida o'zlarining innovatsion yechimini topishga va shu o'rinda "yashil" iqtisodiyotga o'tish chora tadbirlarini ko'rish imkonini ham beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Порфирьев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
2. "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."
3. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil.

<sup>2</sup> <https://www.masen.ma/en/projects/agdez>

<sup>3</sup> <https://www.mbrsic.ae/en/about/mohammed-bin-rashid-al-maktoum-solar-park/>

O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C.

4. "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.08.2024 yildagi O'RQ-940-son.

5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

6. [www.masen.ma](http://www.masen.ma)

7. [www.dewa.gov.ae](http://www.dewa.gov.ae)